

30-Mart, 2026-yil

**QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YER UCHASTKALARI  
ELEKTRON ONLAYN AUKSION ORQALI IJARAGA BERILADI**

*Kattaqo'rg'on shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish boshyuriskonsult*

**E.Sagdullaev**

18.01.2024-yilda “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 15-sonli Prezident Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, 2024-yil 1-martdan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishda ochiq elektron tanlov o'rniga elektron onlayn auksion savdolari joriy etiladi. Bunda: yer uchastkalari elektron onlayn auksion savdolari orqali 30 yilga ijaraga beriladi, boshlang'ich narx yer uchastkasining normativ qiymati miqdorida belgilanadi; yer uchastkalarini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari g'oliblariga yer uchastkasi narxini 3 yil muddatda har oyda teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi; dehqon xo'jaligi, yakka tartibda bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari g'olibi bo'lgan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”da ro'yxatda turgan fuqarolarga yer uchastkasi narxini 5 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi.

Elektron onlayn auksion savdolari orqali ijara huquqini sotishdan tushgan mablag'lar ijara huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin operator xizmat haqi chegirilgan holda quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarga (2 foiz — “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” MChJga, 3 foiz — “O'zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash institutiga, 5 foiz — Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg'armasiga); bazaviy hisoblash miqdorining bir yarim baravari miqdorida — yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organning hisobvarag'iga; qolgan mablag'lar — tegishli tuman (shahar) mahalliy budjetiga.

2024-yil 1-martdan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari ijarachilariga ijaraga berilgan yer uchastkalari bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini yer uchastkasidan foydalanish maqsadini o'zgartirmagan holda boshqa shaxsga o'tkazishi (qayta ijaraga berishi) mumkin bo'ladi. 2024-yil 31-dekabrga qadar o'z hududlarida yerga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan, lekin amalda foydalanib kelinayotgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan barcha yer uchastkalari bo'yicha ijara huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki yerni zaxiraga qaytarish choralari ko'riladi.